



UO'K: 32:1 + 32.019.5 + 17.022.1

Ibadulla ERGASHEV,

Professor, siyosiy fanlar doktori, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: i.ergashev@nuu.uz

Barxayotjon ABDULLAYEV,

PhD, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Professor H.Rajabov taqrizi asosida

SIYOSIY AKSIOLOGIK TAHLIL METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada siyosiy aksiologik tahlil metodologiyasining nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Siyosiy qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyati, uning siyosiy jarayonlar va institutlar faoliyatidagi o'rni hamda siyosiy tahlildagi ahamiyati yoritilgan. Aksiologik yondashuvning siyosiy tahlil metodologiyasidagi o'rni ochib berilib, siyosiy hodisalar va jarayonlarni qadriyatli mezonlar asosida o'rganishning tamoyillari, usullari va bosqichlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida siyosiy aksiologik tahlilning konseptual modeli va amaliy harakatlar xaritasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy aksiologiya, siyosiy aksiologik tahlil, siyosiy qadriyatlar, siyosiy tahlil, aksiologik yondashuv, qadriyatlar tizimi, qadriyatlar iyerarxiyasi, siyosiy qarorlar, metodologiya.

METHODOLOGY OF POLITICAL AXIOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations of political axiological analysis. It explores the essence of political values, their role in political processes and institutions, and their significance in political analysis. The study reveals the place of the axiological approach within political research methodology and systematizes the principles, methods, and stages of analyzing political phenomena through value-based criteria. As a result, a conceptual model and practical roadmap of political axiological analysis are proposed.

Keywords: political axiology, political axiological analysis, political values, political analysis, axiological approach, value system, value hierarchy, political decisions, methodology.

МЕТОДОЛОГИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО АКSIОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

Аннотация

В данной статье исследованы теоретико-методологические основы методологии политического аксиологического анализа. Раскрыты сущность и содержание понятия политических ценностей, их роль в функционировании политических процессов и институтов, а также значение в политическом анализе. Определено место аксиологического подхода в методологии политического анализа, систематизированы принципы, методы и этапы изучения политических явлений и процессов на основе ценностных критериев. В результате исследования разработаны концептуальная модель политического аксиологического анализа и практическая карта действий.

Ключевые слова: политическая аксиология, политический аксиологический анализ, политические ценности, политический анализ, аксиологический подход, система ценностей, иерархия ценностей, политические решения, методология.

Kirish. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti alohida fanlar doirasida emas, balki turli fanlar o'rtasidagi hamkorlik va metodologik integratsiya asosida rivojlanmoqda. Globallashuv jarayonlari natijasida bir fan sohasida shakllangan nazariy yondashuvlar, tadqiqot usullari va metodologik tajribalar boshqa fanlarga ham tatbiq etilmoqda. Bu esa ilmiy bilish imkoniyatlarini kengaytirib, murakkab ijtimoiy-siyosiy voqelikni har tomonlama tahlil qilishga xizmat qiladi.

Xususan, siyosiy fanlarda ratsional tanqidiy paradigmaning rivojlanishi tadqiqot obyektlarini o'rganishda an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, yangilangan va takomillashtirilgan metodlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Mazkur jarayon siyosiy fanlarning metodologik bazasini boyitish, tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va obyektivligini oshirish hamda siyosiy voqelikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Karl Popper "voqelikning rang-barangligi va uning yagona ilmiy izohlash modeliga bo'ysunmasligini ta'kidladi. U fizik tizimlardagi determinizm

va indeterminizmning umumiy tushunchalarini ifodalash uchun bulutlar va soatlar metaforasidan foydalanadi. Eng tartibsiz, betartib va oldindan aytib bo'lmaydigan "bulutlar"dan o'ngda eng muntazam, tartibli va prognoz qilinadigan "soatlar" gacha cho'zilgan bir kontinuumni tasavvur qilishimizni so'raydi"[1]. Bu qarashlar siyosiy fanlar doirasida qo'llaniladigan metodologik yondashuvlarni doimiy yangilab borish, tadqiqot uslublarini takomillashtirib o'zgarib borayotgan siyosiy voqelikni ratsional aks ettirish bilan bog'liq masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan sifat va miqdor tahlili uslublarini o'zida birlashtiradigan metodologik yondashuvlar zamonaviy siyosiy fanning tadqiqot usublari safida keng qo'llanilmoqda. Ayni maqola ana shunday tahlil metodologiyasiga – siyosiy aksiologik tahlil uslubiyotiga bag'ishlanadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Aksiologiya (yunoncha ἀξία – qadriyat va λόγος – ta'limot) – "qadriyat" kategoriyasini; qadriyatlar olamining xususiyatlari, tuzilmalari

va iyerarxiyasini, uni anglash usullari hamda uning ontologik maqomini, shuningdek, qadriyatli mulohazalarning tabiati, o'ziga xosligini tadqiq etuvchi falsafaning bo'limidir. "Aksiologiya" atamasi 1902-yilda fransuz faylasufi P. Lapi tomonidan "Iroda mantig'i" nomli risolasida [2] kiritilgan bo'lib, o'sha yili I. Kreybig tomonidan ishlatilgan "timologiya" (yunoncha τιμή – narx, baho) atamasini muomaladan siqib chiqargan. 1904-yilda esa E. fon Hartman tomonidan falsafiy fanlar tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida taqdim etilgan.

Falsafada ixtisoslashgan fan sifatida aksiologiya tarixi uchta asosiy davrga ajratish rasm bo'lgan: boshlang'ich davr (1860–80-yillar) R. G. Lotse, A. Ritchl, F. Brentano, F. Nitsche nomlari bilan bog'liq; mumtoz davr M. Sheler, E. fon Gartman, G. Myunsterberg, V. Vindelband kabi namoyondalar; mutozlikdan keyingi davr M. Haydegger, B. Rassel, J. Dyui, A. Maslou tadqiqotlarida ifodalangani.

Siyosiy qadriyatlar tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda turli xil ta'riflar berilgan. Xalqaro siyosiy fanlar assotsiatsiyasi tashabbusi va homiyligida tayyorlangan siyosiy fanlar bo'yicha Xalqaro ensiklopediyada "Siyosiy qadriyatlarni siyosiy tizim orqali amalga oshiriladigan, butun jamiyatga xos xususiyatlar va individlar tomonidan kutiladigan yakuniy holatlar deb hisoblash mumkin" [3] deb ta'riflanadi. Xitoylik mualliflar Lyu Venszyuan, Chjan Veypen va Fan Xua siyosiy qadriyat konsepsiyasi tahliliga bag'ishlangan tadqiqotida "Siyosiy qadriyatlar siyosiy tizim, hodisalar va xulq-atvorni o'z ichiga olgan siyosat dunyosi to'g'risidagi muayyan ijtimoiy subyektlarning asosiy qarashlari va fikrlarini anglatadi... Siyosiy qadriyatlar subyektiv kategoriya bo'lib, u siyosat subyektlarning siyosiy obyektlardagi subyektiv aksidir" [4] deb ta'riflaydi.

K. Arnaudning aksiologik obyektivizm va aksiologik subyektivizm [5] nuqtai nazaridan yondashuvi ularni tizimlashtirishda ezgulik, mukammallik, sifatlilik konsepsiyalarini chuqur tahlil qilib ularning har birining darajasi, undan kelib chiqib qadriyatlarni baholash va qadrlash tizimi hamda mezonlarini qayd etadi. Siyosiy qadriyatlarni tushunishda obyektning mohiyatiga ko'ra qadri, subyektning baholashiga ko'ra qadri belgilash bilan birga ma'lum shart-sharoit ta'sirida predmetning ahamiyati ortib ketishi mumkinligi ham muhim ahamiyatga ega. Muayyan g'oya, me'yor, ta'limot, nazariya, institut, amaliyot, usul va shu kabilar ma'lum bir vaziyatda siyosiy qadriyatga aylanishi mumkin. U siyosiy hayotda ma'lum bir qat'iy pozitsiyaga asoslangan, adolat va axloqqa, nimaga ruxsat berilganligi, nima bo'lishi kerakligi va nimaga intilishi kerakligi haqidagi munosabat, qarash, fikr va g'oyalarga asoslangan nisbatan barqaror siyosiy va axloqiy hukmlardir. Keltirilgan ta'riflarga tayangan holda siyosiy qadriyatlarni "siyosat subyektining anglangan ehtiyoji, manfaat, foydasiga xizmat qiladigan, jamiyat siyosiy tizimidan kutayotgan, ayni paytda siyosiy tizim tomonidan o'z taraqqiyoti nuqtai nazaridan e'tirof etilayotgan, ehtiyoj va zarurati nuqtai nazaridan qo'llab quvvatlanayotgan siyosiy g'oyalar, qarashlar, an'analar, institutlar, tamoyillar, siyosiy xulq-atvor va ishtirok shakllari kabilar" [6] deb tushunish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy aksiologiya siyosat falsafasining alohida sohasi bo'lib, uning "asosiy maqsadi siyosiy qadriyatlarining mazmuni, ularning o'zaro bog'liqligi va iyerarxik tuzilishini, zamonaviy siyosiy amaliyotda qadriyatlarining roli va o'rini aniqlashdan iboratdir" [7]. Siyosiy qadriyatlarni o'rganish amaliy siyosiy tahlil sohasida qanday tadbqiqiy natijalarni beradi, siyosiy voqelikning qaysi sohalariga nisbatan qo'llash mumkin, siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda undan qanday foydalanish mumkin, uning asosiy tamoyillari, tahlil uslubi va bosqichlari qanday, degan savollarga javob topish orqali maqolada qo'yilgan maqsad, vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Jahon amaliyotida o'zaro yaqin, biroq sifat jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ikkita fan yo'nalishini ajratib ko'rsatish odat tusiga kirgan: bular - "political analysis" (siyosiy tahlil) va "policy analysis" (siyosat tahlili). "Political analysis" [8] siyosiy voqelikni tasvirlash uchun obyektiv tasavvur yaratish vazifasiga yo'naltirilgan bo'lib, uni siyosat nazariyasining o'ziga xos mantiqiy-metodologik konkretlashuvi sifatida tushunish mumkin.

"Policy analysis" [9] esa, o'z navbatida, asosan siyosiy tizimning "chiqishi"ga - tartibga soluvchi va taqsimlovchi qarorlar hamda harakatlarga qaratilgan amaliy fan yo'nalishidir. Aniq siyosiy vaziyat siyosiy tahlilning predmetini tashkil etadi. Shuning uchun siyosiy tahlil doirasida tadqiqotchi muammoning kelib chiqish sababini ochib berishi, uning asosiy belgilarini ko'rsatib berishi, mavjud ma'lumotlarni sharhlab berishi, muammoning ko'lamini aniqlashi, uning rivojlanish sur'ati va istiqbolini belgilab berishi zarur. Siyosiy tahlil doirasida vaziyat o'z mantiqiga, rivojlanish manbalari, o'sish darajasi va boshqa ko'rsatkichlarga ega yaxlitlik sifatida o'rganiladi. Siyosiy tahlilni o'ziga xos tadqiqot jarayoni deb olsak, uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi mantiqiy bosqichlarga ajratish zarur. Amerikalik olimlar J.B.Mangeym va R.K.Rich [9] ning fikriga ko'ra, tahliliy jarayonning muammoni nazariy asoslash, modellashtirish, o'rganish dasturini ishlab chiqish, uni hal qilish usullarini tanlash bosqichlaridan iborat.

Siyosiy aksiologik tahlil metodologiyasi – qadriyatlar relyativizmi va tarixiylik – siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat) o'zgaruvchan ekanini hamda tarixiy sharoit va madaniyatga bog'liqligini tushunish, plyuralizm - jamiyatda bir vaqtning o'zida turli aksiologik tizimlar mavjud bo'lishi va o'zaro raqobatlashishi mumkinligini e'tirof etish, funkcionallik – e'lon qilingan qadriyatlarga amalda qanday amal qilinishini - hokimiyatni legitimlashtirishini, ommani safarbar etishini yoki siyosiy qarorlarni oqlashini baholash tamoyillariga tayanadi.

Siyosiy aksiologik tahlil - bu siyosiy hodisalarni insoniy qadriyatlar, e'tiqodlar va axloqiy tamoyillar nuqtayi nazaridan tizimli o'rganishdir. Siyosiy tahlilning bu turi fuqarolik jamiyati institutlari, davlat organlari va siyosati sohasi, xalqaro tashkilotlar va siyosiy yetakchilar faoliyatini tadqiq etishda qo'llaniladi. Ushbu tahlilni o'tkazish metodologiyasi siyosiy kontekstlardagi qadriyatlar tizimini tushunishga qaratilgan tizimli, ko'p bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi:

Birinchil bosqichda konseptual asos va qadriyatlarni aniqlash amalga oshiriladi. Bunda asosiy aksiologik kategoriyalarni belgilab olinadi. Tadqiq etilayotgan asosiy siyosiy qadriyatlar belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda diskurs tahlil va xaritalash amalga oshiriladi. Matn tahlili vositasida aksiologik belgilarni aniqlash uchun siyosiy nutqlar, manifestlar va qonunchilik hujjatlari tahlil qilinadi.

Uchinchi bosqichda tadqiq etilayotgan masala kontekstga bog'lanadi va jarayon ishtirokchilari mentaliteti o'rganiladi. Siyosiy mentalitet muayyan ijtimoiy, etnik yoki demografik guruhlar o'zlarining madaniy stereotiplari va tarixiy tajribalari asosida siyosiy voqelikni qanday idrok etishi va tushunishi orqali o'rganiladi.

To'rtinchi bosqichda aksiologik qiyoslanadi. Madaniyatlararo qiyoslash turli jamiyatlar yoki siyosiy partiyalar o'xshash siyosiy tushunchalarni qanday talqin etishi solishtiriladi.

Beshinchi bosqichda siyosat va institutsional baholash amalga oshiriladi. Qadriyatlar muvofiqligi siyosiy subyekt yoki davlatning e'lon qilingan qadriyatlarining uning amaldagi boshqaruv amaliyoti, siyosiy qarorlari va huquqiy asoslari bilan taqqoslanadi.

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, siyosiy aksiologik tahlil metodologiyasi siyosiy jarayonlarni faqat institutsional yoki funksional jihatdan emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy asoslari nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu metodologiyani amaliy harakatlar xaritasiga aylantirish tadqiqotchiga tayyor tahliliy hisobotgacha bo'lgan yo'lni bosqichma-bosqich bosib o'tish imkonini beradi. Siyosiy aksiologik tahlilning amaliy harakatlar xaritasi:

I bosqich – tadqiqot muammosini aniqlanadi. Maqsad - tadqiq qilinayotgan siyosiy hodisa yoki jarayonning qadriyatli asoslarini aniqlashdan iborat. Amaliy harakatlar tadqiqot obyekti va predmetini belgilash, muammoni shakllantirish, o'rganish chegaralarini aniqlash bilan amalga oshiriladi. Natijada tadqiqotning konseptual pasporti yaratiladi.

II bosqichda aksiologik kategoriyalarni shakllantiriladi. Maqsad tahlil qilinadigan qadriyatlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Amaliy harakatlar - ilmiy adabiyotlarni o'rganish, asosiy

qadriyatlar ro'yxatini shakllantirish, qadriyatlar iyerarxiyasini tuzish bilan amalga oshiriladi. Asosiy indikatorlar sifatida qadriyatlar piramidasi tuziladi. Natijada tahlil uchun aksiologik matritsa yaratiladi.

III bosqichda empirik ma'lumotlarni yig'iladi. Bu bosqichda maqsad - siyosiy diskurs va amaliyotda qadriyatlar namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat. Ma'lumotlar manbai sifatida siyosiy yetakchilar nutqlari, parlament materiallari, siyosiy partiyalar dasturlari, qonunlar va strategiyalar, OAV materiallari, ekspertlarning intervyulari, sotsiologik tadqiqot natijalar va boshqalar o'rganiladi. Amaliy harakatlar - hujjatlar bazasini yaratish, matnlarni elektron formatga keltirish, tahlil uchun korpus shakllantirishdan iborat. Natijada tadqiqot ma'lumotlari bazasi hosil qilinadi.

IV bosqichda diskurs va kontent-tahlil amalga oshiriladi. Maqsad qadriyatni markerlarni aniqlash. Amaliy harakatlar – matnlarni kodlash, qadriyatni tushunchalarni ajratish, takrorlanish chastotasini hisoblash, ijobiy va salbiy baholovchi birliklarni aniqlashdan iborat. Natijada qadriyatni diskurs xaritasi yaratiladi.

V bosqichda siyosiy mentalitet tahlil qilinadi. Maqsad qadriyatning ijtimoiy ongda aksini aniqlashdan iborat. Amaliy harakatlar so'rovnomaga o'tkazish, fokus-guruhlar tashkil etish, ekspert baholarini yig'ish, turli ijtimoiy guruhlar qarashlarini solishtirishdan iborat. Natijada jamiyatdagi qadriyatlar qabul qilinish darajasi aniqlanadi.

VI bosqichda kontekstual tahlil amalga oshiriladi. Maqsad - qadriyatlar shakllanish omillari aniqlanadi. Amaliy harakatlar tarixiy manbalarni o'rganish, siyosiy voqealar bilan bog'lash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashdan iborat. Natijada qadriyatlarining genezisi va rivojlanish omillari ochib beriladi.

VII bosqichda qiyosiy aksiologik tahlil qilinadi. Maqsad turli siyosiy tizimlar va subyektlarni taqqoslashdan iborat. Amaliy harakatlar - qiyoslash mezonlarini ishlab chiqish, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, qadriyatlar transformatsiyasini baholashni o'z ichiga oladi. Natijada qadriyatni farqlar va umumiyliklar aniqlanadi.

VIII bosqichda deklarativ va amaliy qadriyatlar mosligi baholanadi. Maqsad – e'lon qilingan qadriyatlar va amaliy siyosat o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlashga qaratiladi. Amaliy harakatlar siyosiy bayonotlarni tahlil qilish, davlat dasturlari natijalarini o'rganish, institutsional faoliyat mos keladi – qisman mos keladi – mos kelmaydi tarzida baholanadi. Natijada qadriyatlar implementatsiyasi darajasi aniqlanadi.

IX bosqichda aksiologik xulosa va prognoz qilinadi. Maqsad - tahlil natijalarini umumlashtirishga qaratiladi. Amaliy harakatlar - ustuvor qadriyatlar aniqlash, qadriyatni ziddiyatlarni ko'rsatish, kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qilish, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Natijada tayyor siyosiy-aksiologik tahliliy hisobot shakllantiriladi.

Yakuniy hisobot tadqiq etilayotgan siyosiy hodisaning asosiy qadriyatlarini, ular qanday tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan, siyosiy aktorlar qaysi qadriyatlar ustuvor deb biladi, deklarativ va amaliy qadriyatlar o'rtasida qanday tafovut mavjud va kelajakda qadriyatlar tizimi qaysi yo'nalishda rivojlanishi mumkin degan savollarga javob beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy aksiologik tahlil metodologiyasi siyosiy hodisa va jarayonlarni faqat institutsional yoki funksional jihatdan emas, balki ularning qadriyatni, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy asoslari nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Siyosiy qadriyatlar tushunchasining nazariy asoslari, ularning siyosiy tizim va siyosiy xulq-atvordagi o'rni hamda siyosiy tahlilda qo'llanish imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, siyosiy aksiologik tahlilning konseptual tamoyillari, bosqichlari va amaliy harakatlar xaritasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari siyosiy qarorlar, siyosiy kommunikatsiya, siyosiy partiyalar faoliyati, davlat siyosati va xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda qadriyatlar omili muhim metodologik ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Siyosiy fanlar metodologiyasida siyosiy aksiologik tahlilni mustaqil tahliliy yo'nalish sifatida rivojlantirish va uni siyosiy tahlilning boshqa usullari bilan integratsiyalash zarur.

Siyosiy partiyalar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini baholashda qadriyatlar muvofiqligini aniqlovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Jamiyatdagi siyosiy qadriyatlar transformatsiyasini muntazam monitoring qilish uchun sotsiologik va ekspert tadqiqotlarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Siyosiy qarorlar samaradorligini baholashda ularning nafaqat institutsional natijalari, balki e'lon qilingan qadriyatlar muvofiqligi ham hisobga olinishi kerak.

Kelgusida siyosiy aksiologik tahlil metodologiyasini sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli siyosiy kommunikatsiya tadqiqotlari bilan uyg'unlashtirish istiqbolli ilmiy yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Gabriel A.A., Stephen J.G. Clouds, Clocks, and the Study of Politics. *World Politics*, Vol. 29, No. 4. (Jul., 1977), pp. 489-522. URL: <http://links.jstor.org/sici?sici=0043-8871%28197707%2929%3A4%3C489%3ACCATS0%3E2.0.CO%3B2-S> (murojaat sanasi: 03.03.2026)
- Lapie P. *Logique de la volonté*. –Paris:, F. Alcan, 1902. 400 p. URL: <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/bpt6k743455/f7>. item (murojaat sanasi: 03.03.2026)
- Values. *International encyclopedia of political science* / edited by Bertrand Badie, Dirk Berg-Schlosser, Leonardo Morlino. SAGE Publications, Inc. USA. 2011. –P.2692.
- Голубев, А.А. Энциклопедический словарь политологических терминов.-СПб. ИД Петрополис. 2013. -552 с. <https://politike.ru/slovari/enciklopedicheskii-slovar-politologicheskikh-terminov-spb-id-petropolis-2013.html> (murojaat sanasi: 03.03.2026)
- Wenjuan L., Weipeng Zh., Hua F. An Analysis of the Concept of Political Values of Civilian in the Army in the New Era. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, Volume 496. Proceedings of the 2020. 3rd International Conference on Humanities Education and Social Sciences (ICHESS 2020). DOI: 10.2991/assehr.k.201214.557 / https://www.researchgate.net/publication/347915328_An_Analysis_of_the_Concept_of_Political_Values_of_Civilian_in_the_Army_in_the_New_Era (murojaat sanasi: 14.01.2023)
- Arnaud, C. *Axiologie 4.0 : proposition pour une nouvelle axiologie*. 2012. 1 vol. -271 p.
- Abdullayev B.B. O'zbekiston yoshlari siyosiy madaniyatida qadriyatlar tizimining o'zgarish jarayoni. 23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura ixtisosligi bo'yicha siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –T.:, 2024. 28-b.
- Жеребятникова И. В. Политическая аксиология: генезис и новые ориентиры исследования // Вісник Національного університету «Юридична академія України імені Ярослава Мудрого». Серія: Філософія, філософія права, політологія, соціологія. 2014. №1 (20). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/politicheskaya-aksiologiya-genezis-i-novye-orientiry-issledovaniya> (murojaat sanasi: 03.03.2026).
- Мангейм Дж. Б., Рич Р. К. *Политология. Методы исследования*: Пер. с англ. / Предисл. А.К. Соколова. – М.: Издательство “Весь Мир”, 1997. – 544 с.
- Weimer D. L., Vining A. R. *Policy Analysis*. 2011. Pearson Education, Inc. –P.494.